

## **O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi Ichki audit va komplayens-nazorat boshqarmasi to'g'risidagi NIZOM**

### **1 bob. Umumiy qoidalar**

Ichki audit va komplayens-nazorat boshqarmasi (keyingi o'rinlarda - Boshqarma deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi (keyingi o'rinlarda - Vazirlik deb yuritiladi) Markaziy apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. Boshqarma O'zbekiston Respublikasi Qurilish vaziriga (keyingi o'rinlarda – Vazir) bevosita bo'ysunadi va hisobot beradi.

Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va buyruqlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi to'g'risidagi Nizomga, vazirlik Hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlari, qarorlari va topshiriqlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

Boshqarma o'z vakolatlari doirasida faoliyatini vazirlikning markaziy apparati, tizim tarkibiga kiruvchi boshqarmalar va muassasalar, shuningdek, davlat organlari hamda boshqa shaxslar bilan mazkur Nizom va vazirlikning boshqa ichki hujjatlari asosida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ichki audit** - O'zbekiston Respublikasi qonun va qonunosti xujjatlarga va ichki me'yoriy xujjatlarga rioya qilinishini o'rganish, baxolash, bartaraf etilishini ta'minlanishiga ko'maklashish;

**komplayens-nazorat** - O'zbekiston Respublikasi qonun va qonunosti xujjatlariga, ichki tartib-taomillarga muvofiqligini tekshirish, hamda qonun va qonunosti xujjatlarga rioya etilishida yoki etmaslikda yuzaga keladigan korrupsion va manfaatlar to'qnashuviga oid xatarlarni aniqlash;

**kontragent** – vazirlik tizimi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**monopoliyaga qarshi kurashish organi** - O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

**monopoliyaga qarshi komplayens tizimi** - faoliyatning raqobat to'grisidagi qonunchilik xujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, xuquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillardir;

**monopoliyaga qarshi komplaens to'g'risidagi hisobot** - raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o'z ichiga oladigan hujjat;

**vakolatli shaxs (boshqarma)** - "Ichki audit va komplaens nazorat boshqarmasi";

**savdolar** - tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog'liq bo'lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

**ko'rsatma** - boshqarma tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi markaziy apparati tarkibiy bulinmalari, tizim tashkilotlari va xududiy bulinmalariga bajarilishi majburiy bulgan topshiriq.

## **2-bob. Boshqarma maqsadi, vazifalari va funksiyalari**

Boshqarmaning asosiy maqsadi vazirlikning markaziy apparati, tizim tarkibiga kiruvchi boshqarmalar va muassasalarda (keyingi o'rinlarda - Vazirlik tizimi deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil etish va takomillashtirish, korrupsiyaviy xarakatlarni oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash, vazirlik tizimi xodimlari o'rtasida mazkur masalalar bo'yicha huquqiy targ'ib qilish va turli profilaktik tadbirlarni tashkil etishdan iborat.

Boshqarma vazirlik tizimida ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beradigan keng qamrovli korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va amalda qo'llanilishiga mas'uldir.

### **2.1. Boshqarmaning ichki auditi sohasida asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

Ichki audit va moliyaviy nazoratni o'tkazish, xamda uning natijalari bo'yicha xisobotlar tayyorlashda mustaqil xisoblanadi;

Ichki audit xodimlarini vazirlikning boshqa tarkibiy bo'linmalariga tegishli bo'lgan ishlarga, shuningdek ularning vakolatiga kirmaydigan dastur va loyihalarni tayyorlash yoki amalga oshirishga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi;

ichki auditning asosiy vazifalari vazirlik tasarrufidagi muassasalar va tashkilotlarda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larini noqonuniy sarflanishi va talon-taroj qilinishi xolatlarini o'rganish yo'llari bilan aniqlash, profilaktika qilish va oldini olish;

vazirlik tizimdagi uning xududiy va tarkibiy bo'linmalarining xarajatlar smetasini xamda daromadlar va xarajatlar smetasini to'g'ri rejalashtirilishi va uning ijrosini, byudjet xisobini yuritilishi, hamda tender (tanlov) savdolarining o'tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monitoring qilish;

vazirlik tizimidagi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalarida markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari raxbarlariga byudjet xisobi va

xisoboti tizimini takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor karzdorliklarga yo‘l qo‘ymaslik, byudjet, smeta-shtat intizomini mustaxkamlash, byudjet mablag‘laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash;

aniqlangan qonun buzilishi xolatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida vazirlik tizimi, uning xududiy va tarkibiy bo‘linmalariga bajarilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritishdan iborat.

## **2.2. Boshqarmaning ichki auditi sohasida asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:**

vazirlik tizimdagi uning xududiy va tarkibiy bo‘linmalarining byudjet mablag‘larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida tizim tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

xarajatlar smetasiga kiritilgan mablag‘larning haqqoniyligi va ularni amaldagi normativlarga muvofiqligi yuzasidan dastlabki nazoratni o‘tkazish;

mehnatga haq to‘lash bo‘yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo‘shimchalar va boshqa to‘lovlar miqdorlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

xodimlarning belgilab qo‘yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etilishi yuzasidan dastlabki nazoratni amalga oshirish;

qurilish qonunchiligiga rioya etish bo‘yicha tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

nazorat va huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari hamda usullarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

sohadagi huquqbuzarliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

har oyda tasdiqlangan ish rejasiga asosan tizim tashkilotlarida o‘rganishlar o‘tkazib borish, bunda, daromadlar va xarajatlar smetalarini hamda shtat jadvallarini qonun xujjatlari talablari asosida tuzilishini o‘rganish;

samaradorlik indikatorlarining ijrosini baxolash;

byudjet xisobini to‘g‘ri yuritilishi yuzasidan axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda masofadan turib monitoring olib borish;

tayyorlangan va topshirilgan moliyaviy xisobotlarning ishonchliligi, asoslanganligini va to‘liq (tugallangan) bulishini o‘rganish va taxlil etish;

yuzaga kelgan debitor va kreditor karzdorliklarning asosililigini urganish;

naqd pul mablag‘lari, tovar-moddiy boyliklari hamda boshqa aktivlarni saqlanishi va xolatini monitoring qilish;

ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri xisoblanishi va o'z vaqtida moliyalashtirilishi hamda mablag'lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan monitoring o'tkazish;

faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha, shu jumladan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini monitoring qilish orqali iqtisod kilinishi mumkin bo'lgan mablag'larni aniqlash;

qarzdorliklarni undirish va qisqartirish, to'lov intizomiga rioya etilishini taxlil etish asosida byudjet mablag'laridan samarali foydalanilganligini o'rganish;

dasturlarda (davlat, tarmok, xududiy) va boshqa normativ-xuquqiy xujjatlarda belgilangan maqsad, tadbir va vazifalar bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lar doirasida erishilgan natijalarni taxlil qilish va baxolash;

belgilangan natijadorlik mezoni va ko'rsatkichlarning bajarilishini tekshirish, doimiy monitoring o'rnatish va taxlil kilib borish;

vakolat doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va mavjud muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish, mexnat va ijro intizomini ta'minlashni nazorat qilish;

byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlashga qaratilgan qonun xujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajarishdan iborat.

### **2.3. Ichki auditning huquqlari va javobgarligi:**

Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

tizim tashkilotlarida nazoratini amalga oshirish yuzasidan zarur bo'lgan ma'lumotlarni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, banklardan, g'aznachilik bo'linmalaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan so'rash va olish;

nazorat ob'ektlarining elektron ma'lumotlar bazasi va axborot resurslaridan foydalanish;

nazorat ob'ektining mansabdor va boshqa mas'ul shaxslardan nazorat tadbiri jarayonida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha tushuntirishlar berishni talab qilish;

nazorat ob'ekti mansabdor va boshqa mas'ul shaxslarining tushuntirishlar berish va nazorat tadbiri natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashdan bosh tortganliklari to'g'risidagi dalolatnomani tuzish;

zarur hollarda, kassa va kassa binolari, omborlar, arxivlar va boshqa binolarni muhrlash, qalbakilashtirish, soxtalashtirish va boshqa suiste'molliklar alomatlari aniqlangan taqdirda esa nazorat ob'ektiga tegishli hujjatlarini olib qo'yish, shuningdek nazorat ob'ekti mansabdor shaxslaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni xatlovdan o'tkazilishini talab qilish;

nazoratni amalga oshirish jarayonida aniqlangan xato kamchiliklarni bartaraf etish, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish hamda nazorat ob'ekti aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan Qurilish vaziriga taqdimnomalar kiritish;

boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **2.4. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 114-sonli Qarori doirasida asosiy vazifalarni amalga oshiradi, shuningdek, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

vazirlik tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta‘minlash va monitoring qilish;

vazirlik tizimining faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda mas‘ul xodimlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid hatti-harakatlar amalga oshirilishini oldini olish;

vazirlik tizimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta‘minlash;

vazirlik tizimi xodimlari tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

## **2.5. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish:**

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi” quyidagilarni amalga oshiradi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste‘molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqish;

raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog‘liq ichki o‘rganish ishlarini tashkil etish;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta‘minlash;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash, xavflar bilan bog'liq holatlar hisobini yuritish va yuzaga kelish ehtimolini belgilash;

vazirlik tizimi faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

vazirlik tizimi xodimlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar o'tkazish;

vazirlik tizimi tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihalarini o'rganish va raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbariyatni xabardor qilish;

Qurilish vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar hududiy organlari va hududiy bo'linmalarida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;

yil yakuni bo'yicha monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotni keyingi yilning fevral oyiga qadar rahbariyatga taqdim etish.

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi” bevosita “Ichki audit va komplaens nazorat boshqarmasi”ga hisobdor bo'ladi.

## **2.6. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash:**

Vazirlik tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida quyidagilar amalga oshiriladi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki vazirlik tizimida raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo'shimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o'rganish;

tender va birja savdolariga qo'yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o'rganish;

aniqlangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

vujudga kelish ehtimoli bo'lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro'yxatini komplaens-xavflar xaritasi ko'rinishida tuzish;

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi”ning faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan hamda rahbariyat bilan kelishilgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirish.

Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish bo'yicha aniqlanadigan xavflar “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi” tomonidan mazkur nizom ilovasiga muvofiq darajalar bo'yicha taqsimlanadi.

Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

## **2.7. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash:**

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi”ning ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga asosan hisoblab boriladi.

“Ichki audit va komplaens nazorat boshqarma”si “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi”ning erishilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

“Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi”ning ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarga erishilgani to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

## **2.8. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot:**

Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo'yicha o'tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

“Ichki audit va komplaens nazorat boshqarma”si tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo'yicha hisobot vazirlikning rasmiy

veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

## **2.9. Boshqarmaning Komplayens-nazorati asosiy vazifalari:**

korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yaratish va takomillashtirish, vazirlik tizimida korrupsiya harakatlarining oldini olish;

vazirlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha xabardor qilish va ularga maslahat berish, shuningdek ushbu masalalar bo'yicha fuqarolar, kontragentlar va jamiyat bilan aloqa o'rnatish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining samarali ishlashi ustidan nazorat olib borish va monitoring qilish;

vazirlik tizimidagi komplayens-nazorat xodimlari va mas'ul shaxslar bilan o'zaro hamkorlik;

korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish.

**2.10. Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish va takomillashtirish, vazirlik tizimida korrupsiyani oldini olish sohasidagi asosiy vazifalari (funktsiyalari) quyidagilardan iborat:**

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyahasini ishlab chiqish;

korrupsiyaviy xavflarni baholash natijasida aniqlangan xavflarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

vazirlik tizimida o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy xuquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

vazirlik tizimi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati nuqtai nazaridan vazirlik tizimi doirasida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari loyahasining yetarliligi, mutanosibligi va dolzarbligi bo'yicha baholash hamda fikrlar berish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga kiritib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasida korrupsiyaga qarshi kurashni takomillashtirish.



Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha fuqarolar, kontragentlar va jamiyat bilan aloqa qilish masalalari bo'yicha vazirlik tizimi xodimlarini xabardor qilish va maslahat berish sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

vazirlik tizimidagi barcha xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni mas'ul shaxslar tomonidan o'tkazish;

vazirlik tizimida boshqarma va mas'ul shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki hujjatlarni taqdim etish, faol ilgari surish;

vazirlik tizimidagi xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish, maslahat va tavsiyalar berish;

vazirlik tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv rejalarini tayyorlashda ishtirok etish;

vazirlik tizimi xodimlari, shu jumladan korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqish;

vazirlik tizimi xodimlari va uning kontragentlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarni ilgari surishda faol ishtirok etish;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali vazirlik tizimi xodimlari va boshqa shaxslardan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va xuquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qilish va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlash;

korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish uchun mo'ljallangan aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qilish va korrupsiyaviy xatarlar to'g'risida xabardorlikni oshirish maqsadida, vazir va vazirlik hay'ati xamda uning tizimi xodimlari e'tiboriga tahliliy materiallarni yetkazish;

vazirlikning rasmiy veb-saytning "Korrupsiyaga qarshi kurash" bo'limida (sahifasida) va vazirlikning ijtimoiy tarmoq sahifalarida joylashtirilgan axborotning yangilab borilishini ta'minlash;

vazirlik tizimi faoliyatida korrupsiya holatlari va xatarlarini aniqlash maqsadida aholi, kontragentlar va xodimlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish;

vazirlikning ichki hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda kontragentlar uchinchi shaxslarning so'rovlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartib asosida korrupsiyaga qarshi kurash tizim holati to'g'risida ma'lumot berish bo'yicha ishlarni yig'ish, birlashtirish va muvofiqlashtirish.

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining samarali ishlashini nazorat va monitoring qilish sohasida Boshqarmaning asosiy vazifalari (funktsiyalari) quyidagilardan iborat:

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga, shuningdek vazirlikning ichki hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring va nazorat qilish;

vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini ta'minlash;

ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi yuzasidan vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ichki auditida ishtirok etish;

o'quv rejasiga muvofiq vazirlik tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglar va o'quv kurslari o'tkazilishi hamda ishtirokini nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurash talablari va tartib-taomillarini, shuningdek korrupsiya xavfi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda axloqiy me'yorlarni Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish;

vazirlik tizimida korrupsiya harakatlari bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazishda ishtirok etish;

xizmat tekshiruvlari reestrda korrupsiya harakatlari bo'yicha o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo'yicha axborotning to'g'ri va to'liq aks ettirilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash qonun hujjatlari va vazirlik tizimining ichki hujjatlarida belgilangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish ustidan nazorat;

korrupsiyaga qarshi talab va normalarni buzish masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarni jazo choralarining mutanosibli va yetarililigini nazorat qilish;

vazirlik tizimidagi odob-axloq Komissiyalari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini hal etish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va yetariligi yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;

budjet mablag'lari sarflanishi ustidan korrupsiyaga qarshi tizimli nazoratni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

o'tkazilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari asosida korrupsiyaga qarshi tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risida vazirga va vazirlik hay'atiga har chorakda yoki zarurat bo'lganda hisobot berish.

## **2.11. Vazirlik tizimining komplayens-nazorat xodimlari va mas'ul xodimlar bilan hamkorlik qilish sohasida Boshqarmaning asosiy vazifalari:**

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha uslubiy yordam va maslahat berish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha hisobotlarni yig'ish;

mazkur Nizom va vazirlikning boshqa ichki hujjatlarida belgilangan tartibda korrupsiyaga qarshi alohida tadbirlarni amalga oshirishda komplayens-nazorat xodimlari va mas'ullarga yordam ko'rsatish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha dasturi/yo'l xaritasini amalga oshirish, shuningdek, vazirlik tizimidagi ichki hujjatlarda belgilangan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning bajarilishi samaradorligini nazorat qilish;

vazirlik tizimida ushbu Nizom va ichki hujjatlarda belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha boshqa hamkorlikni amalga oshirish.

**2.12. Korrupsiyaga qarshi kurash choralari amalga oshiruvchi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida ishtirok etuvchi boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish sohasida Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

qonun va qarorlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni kuchaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

qurilish sohasida va davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va tahlil qilish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini takomillashtirishga xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

korrupsiya huquqbuzarliklarini bartaraf etish yoki tergov qilish tadbirlarini o'tkazishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatli vakillariga va O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurash Agentligiga ko'maklashish.

Boshqarma vakolatlar doirasida vazirning buyruq va ko'rsatmalariga muvofiq boshqa vazifa va funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Boshqarmaning huquq va majburiyatlari**

**3.1. Boshqarma o'ziga yuklatilgan quyidagi vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish huquqiga ega:**

vazirlik tizimi xodimlaridan o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy materiallar, xulosalar, dastlabki tasdiqlovchi hujjatlar, statistik ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

xizmat vazifalarini bajarish doirasida vazirlik tizimi xodimlarining zarur yordamini so'rash va olish;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha vazirlik tizimi rahbarlariga takliflar kiritish;

hujjatlarni talab qilish, vazirlik tizimi xodimlaridan **aniqlangan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar** yuzasidan yozma tushuntirishlar olish;

binolar, uskunalar va asbob-uskunalar, shuningdek, seyflarni tekshirish va tegishli hujjatlarning nusxalarini yaratish, vazirlik tizimi faoliyati faktlarini vazirlik bilan kelishilgan tekshirishlar doirasida foto va video qayd etish;

boshqarmaning qonun hujjatlariga muvofiq raxbariyat tomonidan tasdiqlangan ko'rsatma va taqdimnomalarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi

vazirlik tizimida korrupsiya oid huquqbuzarliklar bo'yicha o'z faoliyati doirasida yozma ko'rsatmalar va tavsiyalar berish;

komissiya majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, majlis jarayonining va natijalarining belgilangan Reglamentga va vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining talablariga muvofiqligi to'g'risida fikr bildirish.

### **3.2. Boshqarma majburiyatlari quyidagilardan iborat:**

o'ziga yuklatilgan topshiriq, vazifalarni o'rnatilgan tartib va muddatlarda puxta bajarish;

nazorat natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash;

davlat sirlarining hamda nazorat ob'ektlarining qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

harajatlar smetalari, daromadlar va xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini konun jujjatlari talablari asosida tuzilishini o'rganish;

o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning samarali, o'z vaqtida va sifatli bajarilishi;

vazirlik tizimida Boshqarma faoliyati samaradorligi va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida dasturlar, harakat rejalari, yo'l xaritalari va boshqa hujjatlarni samarali amalga oshirish;

amaldagi mehnat qonunchiligi talablariga, ijro intizomiga rioya qilish;

fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va vazirlik ichki hujjatlari asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish.

Boshqarma xodimlari yilda kamida bir marta komplayens-vazifalarni bajaradigan xodimlarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitilishi lozim.

Boshqarma xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik hamda/yoki vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini buzganlik, vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari, vazirning buyruqlari, shuningdek, ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishdan bo'yin tovlaganlik, vazirlik tizimi yoki vazirlikning korrupsiyaga qarshi tizimi, uning hududiy boshqarmalari va tasarrufidagi muassasalari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda (intizomiy yoki boshqa ) javobgarlikka tortiladilar.

Boshqarma faoliyati vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimi samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlari natijalari bo'yicha baholanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlari Boshqarma boshlig'i tomonidan ishlab chiqiladi va raxbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishishni nazorat qilish vazir tomonidan amalga oshiriladi.

#### **4-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil qilish**

4.1. Boshqarma faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunlari, mazkur Nizom, shuningdek boshqarmaning ish rejalari asosida tashkil etiladi.

4.2. Boshqarmaning ish rejasi vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yillik rejasi (yo'l xaritasi) asosida shakllantiriladi va vazir tomonidan tasdiqlanadi.

4.3. Boshqarma xodimlarining shaxsiy ish rejasi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

4.4. Boshqarma boshlig'i quyidagilarni bajaradi:

boshqarma faoliyatida bevosita umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqarma faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi va nazorat qiladi;

boshqarmaga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

vazirning buyruq va topshiriqlari, qarorlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydi;

boshqarma boshlig'i korrupsiyaga qarshi kurash va axloqiy talablarga rioya etadigan vijdonli va halol, shuningdek boshqarma xodimlari hamda vazirlik tizimidagi barcha xodimlar uchun o'rnatilgan bo'lishi lozim;

boshqarma ish rejasida ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydi;

vazirga boshqarmadagi kadrlarni tanlash va joylashtirish bo'yicha takliflar beradi, kasbiylik, o'z ishini bilish, amaliy tajriba, yuqori ish qobiliyati va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kafolatlaydi hamda ularning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha choralar ko'radi, boshqarmaning kadrlar zahirasi shakllantiradi;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun boshqarma xodimlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlaydi;

Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq xizmat safarlarini amalga oshiradi, xizmat safarlarining asosliligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safarlariga ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlaydi;

boshqarma xodimlarini tinglaydi, boshqarma majlislarida vazirlik tizimidagi ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ishlar natijalari to'g'risida xodimlarning hisobotlarini eshitadi;

jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan korrupsiyaviy xatar va harakatlar to'g'risidagi axborotni o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

davlat siri va maxfiy axborotga oid ma'lumotlar bilan ishlashda qonunchilik talablariga rioya qiladi;

vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurash, aybdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish sohasidagi faol va samarali harakatlar uchun Vazirlik xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritadi;

vazirlik tizimi xodimlaridan mehnat intizomini buzish, yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarmaslik masalalari yuzasidan yozma tushuntirishlar oladi;

vazirlik hay'ati majlisida muhokama qilish uchun Vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritadi;

boshqarma faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilish, ish rejalari va boshqa vazifalarning bajarilishini nazorat qilish uchun boshqarmaning barcha xodimlari ishtirokida muntazam tezkor yig'ilishlar o'tkazadi;

tegishli hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida imzolaydi;

vakolatli shaxslar bilan hamkorlikda vazirlik tizimi xodimlari tomonidan samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qiladi va qayd etadi;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va vazirlik tizimining ichki hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

## **5-bob. Boshqarma xodimlarining ish haqi va ularni moddiy rag'batlantirish**

5.1. Boshqarma xodimlariga amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq haq to'lanadi va rag'batlantiriladi.

## **6-bob. Yakuniy qoidalar**

6.1. Boshqarmaning faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vazirning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

ILOVA

## **Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo'yicha**

NAMUNAVIY XAVFLAR TASNIFI\*

<b>Ehtimollikni baholash</b> (yuz berish ehtimollari)	<b>Oqibatlar darajasi</b>		
	<b>Past</b>	<b>O‘rtacha</b>	<b>Yuqori</b>
<b>Yuqori ehtimollik</b>			
<b>O‘rtacha ehtimollik</b>			
<b>Past ehtimollik</b>			

\* Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo‘yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, vazirlik tizimi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatiga qarab o‘zgartirilishi mumkin.